



BOLA SHAXSINI RIVOJLANISHIDA NUTQNING ROLI

Sunnatova M.S.

BuxDUPI 2-kurs maktabgacha ta'lim yo'nalishi talabasi

Tayanch so'zlar: nutq, nutq kamchiliklari, bola umumiy nutqining to'liq rivojlanmaganligi, tilning funksional va tuzilish jihatdan noto'g'ri rivojlanishi, go'zal va nafis nutq.

Ключевые слова: речь, речевые дефекты, неполное развитие общей речи ребенка, функциональное и структурно неправильное развитие языка, красивая и изящная речь.

Key words: speech, speech defects, incomplete development of the child's general speech, functional and structurally incorrect development of the language, beautiful and elegant speech.

РЕЗЮМЕ:

Ushbu maqolada bola shaxsini rivojlanishida nutqning roli, tilning funksional va tuzilish jihatdan noto'g'ri rivojlanishi nutq buzilishlariga sabab bo'lishi, bolalarning unga moslashish, ko'nikish imkoniyatlarini chegaralashi, nutq kamchiliklari, bola umumiy nutqining to'liq rivojlanmaganligi sabablari hamda bolalarga nutqni puxta egallash o'z fikrini to'liq ifoda etishga o'rgatish yo'llari haqida ma'lumot bayon etilgan.

РЕЗЮМЕ:

В данной статье рассматривается роль речи в развитии личности ребенка, функциональное и структурно неправильное развитие языка вызывает речевые нарушения, ограничивает возможности детей к нему адаптироваться и привыкать, речевые дефекты, причины неполное развитие общей речи ребенка и причины предоставления детям речи. Содержательное описание способов обучения тщательному мастерству полного выражения своих мыслей.

SUMMARY:

In this article, the role of speech in the development of the child's personality, the functional and structurally incorrect development of the language causes speech disorders, limits the children's ability to adapt to it and get used to it, speech defects, the reasons for the incomplete development of the child's general speech, and the reasons for giving speech to children. Informative description of ways to teach thorough mastery to fully express one's thoughts.

Bola shaxsining har tomonlama kamol topishida nutqning to'g'ri rivojlanishi juda katta ahamiyatga ega. Chunki nutq kishilararo milliy boylik, tarbiya, ta'lim, ijodiyotga qimmatli aloqa vositasidir. Shu boisdan ham bolalarga nutqni puxta egallash o'z fikrini to'liq ifoda etishni o'rgatish lozim. Lekin, afsuski, ba'zi bolalarda nutq buzilishlarining turli ko'rinishlari uchraydi.

Bunday nutq kamchiliklariga ega bo'lgan bolalar o'z fikrlarini nutq orqali to'liq ifoda etib bera olmaydilar.



Tilning funksional va tuzilish jihatdan noto‘g‘ri rivojlanishi ana shunday nutq buzilishlariga sabab bo‘ladi, bu esa bolalarning unga moslashish, ko‘nikish imkoniyatlarini ham chegaralaydi. Bunday nutq kamchiliklariga bolaning umumiy nutqining to‘liq rivojlanmaganligi ham kiradi.

Sharqning ilk uyg‘onish davri qomusiy olimlari (Abu Nasr Farobiy, Abdurahmon Jomiy, Abu Ali Ibn Sino va boshqalar) fikrlarga qaraganda, inson qalbi o‘z tabiati bilan bir-biriga monand bo‘lgan rohat nutq tovush va ritmlarni yoqtiradilar. Chunki tovushlar insonlar va hayvonlar hayotidagi eng zarur fanitorlaridan biridir. Tovushning o‘ziyoq ham insonni, ham hayvonni hayajonlantiradi, biror qo‘rqinchli voqea ro‘y berganda esa u bir-birini chaqirish vositasi sifatida qo‘llaniladi va qayta rol o‘ynaydi.

Nutq bola hayotida turli funksiyalarni: aloqa qilish, tajribalarni o‘zlashtirib olish, faoliyatini boshqarishni bajaradi. Bu sanab o‘tilgan funksiyalar maktabgacha ta’lim davrida shakllanadi.

Nutq inson faoliyatini boshqarish vositasidir. U xotira va idrok jarayonlarini tashkil etadi. Shunday ekan bu vazifalarni amalga oshirishda nutqni to‘liq rivojlanmagan maktabgacha ta’lim yoshdagi bolalarni logopedik mashg‘ulotlar yordamida nutqiy kamchiliklarini bartaraf etish muhim ahamiyat kasb etadi. Chunki maktabgacha ta’lim bola shaxsini sog‘lom va yetuk, maktabda o‘qishga tayyor tarzda nutqini shakllantirish maqsadini ham ko‘zlaydi.

Go‘zal va nafis nutq madaniyatining ibtidosi ko‘hna Sharqda juda qadim zomonlarga borib taqaladi. Ma’noli va bejirim gapira bilish maqbul va nomaqbul ohanglarni ilg‘ay olish so‘zning orqa o‘rnini uning munosib o‘rnini farqlay bilish, nutqiy fahmu farosat, nutq odobi kabi fazilatlar Turonda inson umumiy axloqining ma’naviy rasomining tayanch ustunlaridan sanalgan.

Ulug‘ ajdodlarimiz Yusuf Hos Hojib: “Odobning boshi tildir”, deb bejiz aytmagan. Xalqimizning og‘zaki va yozma so‘z xazinasidagi nutqiy xulqqa oid bunday nur ma’no hikmatlarning sanab sonog‘iga yetish mushkul. Milliy jamiyat va umuminsoniy qadryatlar, milliy o‘zlik, idrokning sobitligi milliy ong va tafakkur, milliy g‘urur va iftixor, vatanga muhabbat va istiqloлга sadoqat kabi ma’naviy kamolatning o‘zagini tashkil etuvchi tushunchalarni atrof muhitdan ayri holda tasavvur etib ham bo‘lmaydi.

Chinakam nutq madaniyati tilni ongli idrok etish asosida shakllantiradi. Nutq madaniyati jamiyat ma’daniy-ma’rifiy tarqiyotning, millat ma’naviy kamolatning muhim bosqichidir va zaruriy belgisidir. Haqiqiy ma’nodagi madaniy nutq shaxs umumadaniy saviyasining favqulotda muhim unsurlaridan biridir. Shuning uchun ham mamlakatimizda ma’naviy ma’rifiy islohotlar davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishi deb e’lon qilingan bugungi kunda nutq ma’daniyati masalalari, farzandlarimizning nutqiy ma’daniyat ko‘nikmalari va malakalarini oshirish, ta’lim jarayonlarining barcha bosqichlarida ma’daniy nutq muammolarini yetarli

darajada nazarda tutish har qachongidan ham dolzarblik kasb etganligi bejiz emas. Nutq ma'daniyati tildan bermalol maqsadga o'rta muvofiq tarzda foydalana olishni ta'minlaydigan ko'nikma malaka va bilimlarining jami demakdir.

Nutqning ma'daniyatligini ta'min etadigan to'g'rilik, aniqlik, mantiqiylik, ifodalilik, boylik (rang-baranglik), soflik kabi bir qancha sifatlari mavjud. Ana shu kommunikativ sifatlarning barchasini o'zida mujassamlashtirgan nutq madaniy hisoblanadi. Nutqning to'g'riligi, ya'ni uning adabiyoti mezonlari (talaffuz, so'z urg'usi, so'z yasalishi, marfalogik, sintaktik, uslubiy mezonlar) ga qat'iy mosligi ma'daniy nutqning asosiy markaziy sifatidir. Ammo har qanday to'g'ri nutq ma'daniy bo'lavermaydi, u zikr etilgan boshqa kommunikativ sifatlarga ega bo'lgandagina chin ma'nodagi ma'daniy nutq ro'tbasini ola biladi.

Millat bolasini qutqarmoq ishtiyoqi bilan elib yashagan bobomiz Abdurauf Fitrat bunday degan edi:

“Ma'lumki, odam birinchi tarbiyani onasining bag'rida oladi. Shu narsa muqarrarki, ana shu birinchi tarbiya (oila tarbiyasi) tarbiyaning eng muhim bosqichi hisoblanadi. Uning ta'siri odam tabiatiga mustahkam o'rtnashadi. Shaxs ruhiyati, axloq javhari va ofatlari bolaligidanoq shakllanadi”. (A.Fitrat, Oila, Toshkent: “Manaviyat” 1998-y 34-bet) Besh olti yoshgacha odamlar bilan muloqotda bo'lmasdan o'sgan bola keyin nafaqat tilni bilish, hatto nutq tovushlarini to'g'ri talaffuz qila olish qobiliyatidan ham mahrum bo'ladi. “Kishi so'z eshitmak bila suxango'ylik hosil qila bilishini dalilab berar ekan, Kaykovus o'zining mashhur “Qobusnoma” kitobida shunday deydi:”... Agar bir o'g'lon onadan tug'ilsa, unga yerining ostidan bir joy qilib, sut berib,ul joyda parvarish qilsalar, onasi va dadasi unga gapirmasalar, u o'g'lon hech kishining so'zini eshitmasa, ulug' bo'lg'onda lol (soqob) bo'lur” (“Qobusnoma” Toshkent 1994y 41-42 betlar) ”

Shuning uchun ham til zavqi, madaniy nutq sezgisi va so'z sevgisi borasidagi ilk tarbiya oilada, bola bir-ikki so'zi “chug'urlash” baxtidan quvongan-sarmast bo'lgan paytdanoq boshlash kerak.

O'quvchining nutqiy ma'daniyatini, badiiy so'z hissini parvarish qilishda atrof-muhit fanining o'rni kattadir. Nutqiy ma'daniyatni o'rgatish chiroyli so'z zavqini o'stirish, umuman til estetikasi tarbiyasida birligi, asosiy jonli kurgazmali qurol o'qituvchining o'zidir.

Rossiyada Petr I zamonida shunday bir farmon chiqarilgan ekan. Unga ko'ra, jismoniy yoki nutqiy nuqsonga ega bo'lgan odam, har qancha yetuk bo'masin dars berish uchun sinfga kiritilmagan. Dunyo boladay ziyrak tanqitchi va unday mohir tanqidchi yo'q. Shuning uchun “Jonli ko'rgazmali qurol” har jihatdan to'kis va tugal bo'lishi lozimligi oddiy mantiqning talabidir.

Nutq ma'daniyati muommalarini ilmiy asosda o'rganishni yanada chuqurlashtirish ham bugungi kunda alohida dolzarblik kasb etadi. Mustaqillik



sharofati bilan erkin taraqqiyot yo‘liga to‘shib olgan tilimizning o‘z tabiatiga hos mezonlarini tayin etish, unutilgan boyliklarini tiklash, bir necha ming yillik madaniyatimiz tarixidagi nutqiy odob analarining o‘rganish, so‘zni benazir nemat sifatida ardoqlagan ulug‘ ajdodlarimizning ulkan merosini bor bo‘yicha ko‘rsatib berish ayni soha mutahassislari oldida turgan muhim vazifalaridir.

Nutq fikr his- tuyg‘uning ifodasidir. U ikki hil ko‘rinishida bo‘ladi: og‘zaki nutq, yozma nutq.

Nutqning yozma shakli shu tilning alifbo va imlosi bilan bevosita bog‘lanadi.

1919 yili dekabr oyida Toshkentda imlo kengashi o‘tqaziladi. Bolalar uchun isloh qilingan arab alifbosidagi Shokirjon Rahimiyning “sovg‘a” alifbe kitobi, 1920 yilda esa kattaq yoshdagilarning o‘z ona tilida xat-savod o‘rganishlari uchun M.Qodirov va boshqalarning “Kattalarga o‘qish kitobi” nashr qilinadi.

Nutq bu til deb ataluvchi, o‘ta muhim vazifalarni bajaruvchi noyob quroldan foydalanish jarayoni. Nutqiy jarayon-tilning o‘z vazifasini bajarish jarayon – tilning o‘z vazifasini bajarish jarayoni bu jarayon yaxshi yoki yomon kechish mumkin. Notiq esa bu jarayonni ma‘lum ma‘noda amalga oshiruvchidir.

“Qobusnoma” muallifi Kaykovus hamma hunarlar ichida so‘z hunari-notiqlikni a‘lo deb bilgan: “Bilgilkim, hamma hunardan so‘z hunari yaxshi”. (“Qobusnoma” Toshkent “O‘qituvchi” nashryoti, 1968yil 2-9-betlar.)

Adabiyotshunos olim Izzat Sulton “Adabiy asarlarning mazmuni undagi tilning oliyjanoblighi, tasvir qilingan odamlar va hodisalarning go‘zalligi yoki hunarligi-hammasi o‘quvchiga asarning tili orqali aytadi. Shu sababli til sohasidagi mahorat yozuvchi qobilyatining eng yorqin alomatidir.” Der ekan, eng avvalo til qurolidan foydalanish mahorati eski o‘zbek yozuvi haqida ham fikr yurutgan.

Aloqa-aralashuv quroli-tildan foydalangan holda hoh og‘zaki, hoh yozma nutq tuzar ekanmiz, uning barcha imkoniyatlarini hisobga olgan holda yana tinglovchilarning tafakkuri, onglilik darajasi, umumiy saviyasi, yoshi, holati, kayfiyati, karakteri, kasbi, vaqti, kabi juda ko‘p omillar ko‘zda tutilishi lozim.

Nutq boyligi tildagi boylikning undagi qay darajada o‘z aksini topganligi bilan belgilanadi. Nutqdagi tildagi rang-barang vositalar o‘z ifodasini topgan bo‘lsa bunday nutq madaniyatining asosiy mezonlaridan biridir.

Har bir murabbiy o‘quvchilar nutqiga e‘tibor qilsa, nutq tuzush ma‘suliyatini his ettirsa, o‘quvchi nutqining boy bo‘lishini ta‘minlashi mumkin. So‘zga, nutqqa e‘tiborsizlik, bilan qarash uni qashoqlashtiradi.

Yana shuni aytishi kerakki, o‘z so‘z boyligini asosan lug‘atlar orqaligina boyitish mumkin. Yoshlar hozirgi tilimizda, mumtoz adabiyotlar namunalarida uchraydigan juda ko‘p ajoyib so‘zlarning asl ma‘nolarini bilmaydilar, Bu o‘rinda R.Denartning quyidagi fikrini eslatib qo‘yish maqsadga muvofiqdir: “So‘zlarning ma‘nolarini odamlarga tushuntirib bering, shunda siz insoniyat olamini anglashilmovchiliklarning yarmidan halos qilgan bo‘lasiz”.

*Kimki so'zni qadrlasa har qachon,
O'z-o'zini qadrlagay begumon.*

(A.Jomiy)

Nutq madaniyati malakasini shakllantirish va tarbiyalashga xizmat qiluvchi Nolisoniylar ta'limiga: nutq odobi (nutqiy yetuk), nutqiy nazokat (Nutq estetikasi), nutqiy xulq, nutq va milliy ruxiyat, nutq va ma'naviyat kabi bir qator ilmiy bilim tizimlari kiradi.

Yuqorida zikr qilingan fikrlardan xulosa qilib aytish mumkinki, maktabgacha ta'lim yoshidagi bola shaxsini shakllantirishda unumli nutqning to'g'ri rivojlantirilishi muhim ahamiyati kasb etdi.

Shu boisdan ham davlatimiz maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalarning nutqini ravon va mukammal bo'lishiga nutq madaniyatini shakllantirishga katta e'tibor bermoqda. Aynan logopediya fani yuqorida aytilgan maqsadlarni amalga oshirishdek murakkab vazifani bajarishni o'z oldiga maqsad qilib qo'ygan.

Logopediya fanining obyekti bu nutq kamchiliklari ega bolalardir. Shunga ko'ra logopediya maxsus pedagogika fani tartibi sifatida nutqdagi kamchilik sabablari va ularning oldini olish tuzatishni yo'llarini o'rganadi.

Logopediya masalalari dastlab (XVII asrda) surdapedagogika sohasida o'rganilgan. XIX asrning 2-yarimidan boshlab nutqdagi kamchiliklarni o'rganishga mustaqil ravishda, meditsina nuqtasi nazarida yondasha boshlanadi. Nutq faoliyatining tabiati halqadagi ilmiy tasavvurlarning kengayishi va bu sohada olib borilgan tadqiqotlar natijasida logopediya yo'nalishi tubdan o'zgaradi, unda pedagogik mazmun birinchi o'ringa qo'yiladi. Hozirgi zamon logopediya fanida insonning nutq faoliyati tabiati xususiyatlarining psixik faoliyatga ta'sirini o'rganishga alohida ahamiyat beriladi. Zero nutq markaziy nerv sistemasi bajaradigan eng muhim ruhiy funksiyalardan biri bo'lib, u boladagi ruhiy jarayonlarning tartib topishiga va bolaning umumiy rivojlanishiga xizmat qiladi. Nutq kamchiliklari esa bolaning ruhiy va jismoniyva ruhiy rivojlanishiga salbiy ta'sir ko'rsatadi.

Nutq kamchiliklari gapiruvchi shaxsning nutq faoliyati normal holda ishlayotgan ruhiy fiziologik mexanizmlarning zaiflashuvi bilan bog'liq holda ma'lum til muhitida qa'bul qilingan adbiy til normalaridan chetga chiqishi bilan belgilanadi. Adbiy tilda qa'bul qilingan nutq miyoridan biroz bo'lsa ham chekinish nutq nuqsoni deb hisoblanadi. Kommunikativ nazaridan qaraganda nutq bo'zilishlari, bu aloqa vositasining bo'zilishidir. Shuning uchun logopedik tadqiqotlarda talaffuzdagi nuqsonlar bilan bir qatorda nutqning leksik-grammatik taraqqiyoti ham o'rganiladi.

Nutq kamchiliklari paydo bo'lishi, tabiati, psixik taraqqiyotga ta'siri jihatidan turlihvadir. Ular bilish jarayonini atrofda kishilar bilan muomalani qiyinlashtiradi.



Natijada bola tortinchoq bo'lib ruhiy taraqiyotda o'z tengdoshlaridan ortida qolishi mumkin.

Maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalarda nutqning to'liq rivojlanmaganligi yetishtirish va uni bartaraf qilish masalasi katta qiziqish uyg'otib kelmoqda, uni amaliy hamda nazariy jihatdan chuquroq o'rganishni talab qilmoqda.

Intilishi va initelekti o'rtachabo'lgan bolalardan nutqning to'liq rivojlanmaganligi deganda nutq anamaliyasining shunday shanli tushuniladiki, unda barcha nutq kamponentlarining shakllanishi bo'zilgan bo'ladi. (fonetik-fonematik, leksik va grammatik).

Nutqning to'liq rivojlanmaganligi R.E. Levina uch daraja bilan belgilaydi: nutqiy aloqa vositalarining umuman yo'q bo'lishidan to fonetik-fonematik va leksik-grammatik jihatdan rivojlanmaganlik elementlariga ega bo'lgan mukammal nutq bo'lishigacha.

Intelenti, eshitishi va ko'rish miyorida rivojlanayotgan bolalarda nutq kamchiligini o'rganish va bartaraf etish bo'yicha A.R. Mo'minova ularning ilmiy rahbarligida M.Y. Ayupova, X.M. Po'latova N.R. Rahmonqulovalar maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalarning nutqiy o'rganish xususiyatlari yuzasidan ilmiy-tadqiqotlar ishlari olib borganlar.

Maktabgacha ta'lim yoshdagi fonetik-fonematik kamchilikka ega bo'lgan bolalarda nutqning talaffuziga bag'ishlangan maxsus ilmiy tekshirishlar, metodik tavsiyalarning yo'qligi, differensial diagnostika qilish uslublarini va kamchiligini korreksiyalashning yo'llari ishlab chiqilmaganligi, bu itofadagi bolalarning maktabda ta'lim olishiga salbiy ta'sir ko'rsatishi M.Y. Ayupova tomonidan o'rganiladi.

M.Y. Ayupova maktabgacha ta'lim yoshidagi o'zbek bolalarida fonetik-fonematik nutq kamchiliklari bor o'zbek bolalarida logopedik-korreksion ishning zarurligi, bu kamchiliklar logopedning yordamisiz bartaraf etilmasligi, balki ular bola uchun maktab dasturining o'zlashtira olmasligiga bosh sabab bo'lishini isbotlab beradi.

Adabiyotlar:

1. Venger A.A., Vigotskaya G.L., Leongerd E.M. O'tbor detey v spetsialniy doshkolniye uchrejdeniya M. Pros-ya 1972.
2. Dulnev G.M., Luriya A.R. "Principi otbora detey vo vspomagatelni shkoli" M. 1970.
3. Dvyachnov A.I. "Vospitaniya i obucheniya gluxonemix detey" M. 1977
4. Zinov S.A. "Obucheniya gluxix detey yaziku po principu formirovaniya rechevoga obucheniya" M. 1971.
5. Zinov S.A. "Obucheniya gluxix detey yaziku". M. 1979.
6. Korsunskaya B.D. "Metodika obucheniya gluxix doshkolnikov rechi" M. 1989.
7. Luriya A.R. "Rol rechi i psixicheskaya razvitiya rebyonka" M. 1978.
8. Luriya A.R., Yudovich F.Ya. "Rech i razvitiya psixicheskix protsessa u rebyonka" M. 1976.
9. Morozova N.G. "Formerovaniya poznavatelnix interesov u anomalnix detey" M. 1979.